

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

SHAHAR TASHQARISIDAGI DAM OLIISH MASKANLARINI SHAKLLANTIRISHDA CHET EL TAJRIBASI

^{1,2} Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori va magistranti

¹ Talipov Maxirdjan Agzamovich,

² Irismetov Murodjon Bayotjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada dam olish maskanlarini shakllantirishda chet el tajribasi Ozarbayjon misolida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Dam olish maskanlari, kompleks, rekreatsiya, kurort, turizm, arxitekturaviy loyihalash, modernizatsiya, shahar tashqarisi.

Kirish.

Dunyoda globallashuv jarayonining ta'siri turli mamlakatlar shaharlari atrofidagi dam olish maskanlarining shakllanishiga hamda faoliyat ko'rsatishiga kuchli ta'sir o'tqazmoqda. Insonlarda bo'sh vaqtning paydo bo'lishi, oila byudjetining yaxshilanishi va insonlarning dunyo kezishga qiziqishiga ortishi shahar tashqarisidagi dam olish maskanlariga bo'lgan talabning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan bu kabi maskanlarni yanada qulay qilish maqsadida qayta shakllantirish, zamon talablari asosida ko'plab yangi bino va inshootlarning barpo etilishiga bo'lgan intilishni davr talabi qilib qo'ymoqda. Yurtimizda olib borilyotgan bunday islohotlar tashqi va ichki turizimni rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. O'zbekiston hududida ko'plab dam olish maskanlari barpo etilgan va hozirgi kunda jahon standartlari darajasida xizmat ko'rsatuvchi ob'yektlar ham yo'q emas. Ammo bu sohada amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar ko'lami keng. Buning uchun esa, bu soha rivojiga hissa qo'shuvchi chet ellik va mahalliy investorlarni jalb etish, dam olish uylari, turli yosh toifasidagi aholiga mo'ljallangan oromgohlarni, sanatoriy va kurortlarni bunyod etish juda muhimdir. Shuningdek, chet mamlakatlarning tajribasini o'rganish hamda qo'llash dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.



1-rasm. Lankaran dam olish maskani

Asosiy qism. Mamlakat aholisning dam olish kunlarini maroqli o'tqazishi, oila va do'stlar davrasida hordiq chiqarishi, chet ellik sayohlarning ham O'zbekistonning oromgoxlari haqidagi yaxshi tassavurlar bilan yurtiga qaytishi juda muhimdir. Bizda go'zal tabiat manzaralari, ma'danli suvlarning mavjudligi, tog'li landshaftning serjiloligi insonlarda ko'tarinki kayfiyatni uyg'otmoqda.

Shahar tashqarisidagi dam olish maskanlariga tashrif buyuruvchilar ularga ko'rsatilyotgan xizmatlardan, yaratilgan sharoitlardan rozi bo'lib ketishi muhim masala hisoblanadi. Shunday ekan mavjud dam olish maskanlarini rekonstruksiya qilish va yangilarini kompleks ravishda barpo etish lozim bo'ladi. Toshkent viloyati hududining ko'plab dam olish maskanlarida aynan shunday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Lekin barcha hududlarda ham ishlar ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Ko'p holatlarda dam olish maskanlarida yo'llanma asosida bir necha kun davomida tinch hordiq chiqarishda kelgan aholi vakillari bilan bir kunlik hordiqqa kelgan tashrif buyuruvchilarning bir-biriga halaqit berishining guvohi bo'lamiz. Bizningcha, nisbatan uzoq muddatga tashrif buyurgan dam oluvchilar uchun alohida, kunlik tashrifchilar uchun alohida dam olish hududlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bolgariya, Vengriya, Latviya, Gruziya va boshqa ko'pgina mamlakatlar tajribasini o'rganish foydadan holi bo'lmaydi. Yuqorida nomi zikr etilgan mamlakatlarning shahar tashqarisidagi dam olish maskanlari tog' yon bag'irlarida yoki dengiz va ko'llar bo'yida joylashgan bo'lib, ularda har bir dam olish maskanining kompleks ravishda barpo etilganini ko'ramiz. Bizda esa komplekslikni, ya'ni, turar-joy korpusi, ovqatlanish, savdo, maishiy xizmat, madaniyat va ma'rifat ob'yektlarini, sport, tashqi transport hududi va boshqalarning yonma-yon joylashganini kamdan-kam holatlarda kuzatamiz.



2-rasm. Ozarbayjon Qabala Kanat majmuasi

Ko'pincha dam olish maskanlariga shahardan olib boruvchi yo'llarning sifatsizligi, ularda xizmat ko'rsatuvchi ob'yektlarning yetarli emasligi kishi dilini xira qiladi.

Ko'pgina turizm rivojlangan mamlakatlarda turistik qishloqlarning barpo etilganining guvohi bo'lamiz. Agar bizning tog'li hududlarimizda bunday qishloqlar tashkil etilsa, o'ylaymizki, ularga bo'lgan talab yuqori bo'ladi. Turistik qishloqqa tashrif buyurgan dam oluvchilar u yerdagi xonadonlardan birida yashashi, tabiiy mahsulotlardan va shifobaxsh giyohlardan iste'mol qiladilar, tog'ning musaffo havosidan nafas oladilar. Shuningdek, tog'li xalqning mehmondo'stligiga guvoh bo'ladilar. Ular tog'li aholining to'y va boshqa bayramona tadbirlarida, xalq sayllarida ishtrok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ishonamizki, bunday dam olish insonlarga esda qolarli darajada taassurotlarni hadya etadi. Turistik qishloqlarda dam olgan kishi ruhan va jismonan sog'lom bo'lib oila davrasiga qaytadi. Dam olish maskani sog'liqni saqlash, davolash, kasalliklarning oldini olish va tibbiy reabilitatsiya qilish maqsadida foydalaniladigan, tabiiy shifobaxsh resurslar bilan faol ishlaydigan inshootlarga ega bo'lgan alohida muhofaza qilinadigan hudud hisoblanadi [2]. Rekreatsion hududlarda joylashgan kurort va dam olish maskanlari mahorat bilan rejalashtirish orqali mukammal yechimga erishish hamda dam olish maskanlarini kompleks tashkil etish mumkin bo'ladi [3].

Dam olish maskanlarining me'moriy yechimiga alohida talablar mavjud bo'ladi. Me'moriy yechimning asosiy maqsadi inson salomatligining psixofizik xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, kurortda qolish uchun yetarlicha qulay sharoitlarni ta'minlashdan iboratdir. 1920-yillarning boshlarida shu davr me'morlari tomonidan burjuaziya va zodagonlarning qasrlarini, ustunlar, ayvonlar va keng terassalar bilan bezatilgan sobiq mulklarni rekonstruksiya qilish va ular uchun sanatoriy-kurort muassasalarining yangi funksional yechimini taklif etish maqsad qilib olindi. Shuningdek, dam olish maskanlarining loyihaviy yechimini tubdan isloh qilinishi pansionatlar, dam olish uylari, sanatoriy binolari, odamlarning doimiy yashash joyi bo'lgan umumiy kurort binolari oyna va beton mahsulotlari bilan boyishiga olib keldi [4].

Bugungi kunda tog'li hududlardagi qadimiy manzilgohlar o'rnida o'z qiyofasini yo'qotmagan holda kurort muassasalarini shakllantirish va ularga tutash hududni zamonaviy talablarga javob beradigan darajada obodonlashtirish yangi me'moriy yechim bo'lib xizmat qilmoqda. Shimoliy Yevropa mamlakatlari kurort majmualarini jadal qurishda maksimal samaradorlik, zamonaviylik va qulaylik ko'rsatkichlariga erishishga intilmoqdalar. Kurort zonalarini rivojlantirishda an'anaviy me'morchilik tamoyillari va tabiiy landshaftni uyg'un ravishda tashkil etishga erishish uchun harakat qilinmoqda.

Ozərbayjonda turizmni rivojlantirish sohasiga berilayotgan katta e'tibor tufayli e'tiborga loyiq dam olish maskanlari, kurortlar kompleksini shakllantirishga muvaffaq bo'linmoqda. Mamlakat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida zamonaviy mehmonxona va turizm infratuzilmasi yaratildi. Shu bilan bir qatorda, Ozarbayjon bo'ylab ko'plab sayyohlik marshrutlari ishlab chiqilgan va sinovdan o'tgan, eng go'zal va unumdor hududlardagi dam olish maskanlari kompleksidan iborat bo'lib, katta qismi shahar tashqarisida joylashgan. Ozarbayjon Respublikasining geografik joylashuvi qulay bo'lib, Yevropa va Osiyo chegarasida joylashgan Kavkazortining butun sharqiy qismini egallaydi. Respublika Janubiy Kavkazning mintaqaviy yetakchisi hisoblanadi, chunki u xalqaro maydondagi eng yirik, iqtisodiy rivojlangan va siyosiy ahamiyatga ega davlatdir.



3-rasm. Ozarbayjon Xinaliq dam olish maskani manzarasi

Bugungi kunda Ozarbayjon o'zining neft va gaz resurslari bilan dunyoga mashhur. Shu bilan birga, mamlakat sayyohlik yo'nalishlarini rivojlantirish uchun juda katta turizm salohiyatiga ega. Ozarbayjonda turizm so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biridir. Sayyoramizning mavjud 11 iqlim zonasidan 9 tasi Ozarbayjon hududida joylashgan. Ozarbayjon turistik resurslarining tabiati va infratuzilma holatini hisobga olgan holda, turizm tizimini rivojlantirish uchun quyidagi turlar alohida qiziqish uyg'otishi mumkin: madaniy, ma'rifiy, biznes, shuningdek, ixtisoslashgan turizm (plyaj, tadbir, ekologik, qishloq, ov va baliq ovlash, sport, sog'liqni saqlash, etnik, ta'lim, chang'i, ilmiy va boshqalar) [5].

Plyaj turizmi dam olishning eng mashhur turlaridan biridir: ko'pchilik mahalliy (ichki) sayyohlar dengiz bo'yida dam olishni afzal ko'radilar. Bu yo'nalish Absheron yarim orolida va mamlakat shimolidagi Nabran sayyohlik hududida faol rivojlanmoqda.

So'nggi yillarda chang'i sport-sog'lomlashtirish maskanlari juda mashhur va talabgir bo'lib bormoqda. Shu munosabat bilan Ozarbayjonning Gusar viloyatida "Shahdag" loyihasi amalga oshirilib, uning yakuniga ko'ra mehmonxonalar va ekologik toza muhandislik-transport infratuzilmasiga ega zamonaviy tog'-chang'i

kompleksini foydalanishga topshirildi [6]. Bu esa, nafaqat mamlakat aholisini balki, xorijlik sayyohlarni mamlakatga jalb qildi. Dam olish maskanlari kompleksini shakllantirish orqali turizmni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi tamoyillarga asosan amalga oshirildi:

- sohaga doir munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish;
- dam olish maskanlariga jalb qilishni ichki va jahon turizm bozorlarida ilgari surishga ko'maklashish;
- dam oluvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash;
- sanatoriy-kurortlarni tashkillashtirishda soha bo'yicha litsenziyalash, standartlashtirish kabi hujjatlarni takomillashtirish;
- mamlakat hududidagi dam olish maskanlarini qurish bo'yicha uslubiy va tizimli takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;
- hudud ixtisosligidan kelib chiqib, dam olishning turlariga moslashtirish, bunda tabiiy rekreatsion zonalar landshaftiga sezilarli ta'sir etmaslikni eng birinchi maqsad qilib qo'yish;
- dam olish maskanlari hududiga eltuvchi va komplekslashgan dam olish maskanlari transport tizimini shakllantirish va shu kabi tamoyillar asos bo'ldi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida yuqorida keltirilgan chet el mamlakatlari, xususan Ozarbayjon mamlakatining dam olish maskanlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqqan tamoyillari, O'zbekistonning shahar tashqarisida joylashgan dam olish maskanlarini kompleks tashkil etish uchun andoza sifatida foydalanib, milliy tamoyillar jamlanmasini ishlab chiqish orqali mamlakatimiz rekreatsion hududlaridagi dam olish maskanlari kompleksini shakllantirishga erishish mumkin. Bu esa, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish va resurslardan unumli foydalanishga yordam beribgina qolmay, O'zbekistonning iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. К.И.Самойлов, К.Р.Омаров «Мировой опыт развития курортных зон», статьи по специальности «Строительство и архитектура», УДК 712.23: 626.814(574), 96 стр.
2. Курорты. Энциклопедический словарь / Гл. ред. Е.И. Чазов. М.: Сов. энциклопедия, 1983. 592 стр.
3. Фоминых И.Л. Основы проектирования туристских, гостиничных и ресторанных комплексов // Учебное пособие – ВГУЭС: Владивосток, 2007. 104 стр.
4. Морозова Н.В. Принципы и приемы архитектурного формирования прибрежных рекреационных комплексов в горных ландшафтах (на примере горного Алтая). Барнаул, 2012. 228 стр.
5. Алиев Х.М. «Перспективы развития туризма в азербайджанской республике», статьи по специальности «Туристика», УДК 338.48(479.24), 45-46 стр.
6. Гасанов Ш.М. Курортные богатства Азербайджана. Баку: Азер-Медиа, 2013. 204 с.